

TOPISHMOQ POETIKASI

Usmonova Nilufar

O'zbekiston Davlat Jahon Tillar Universiteti
Fransuz tili nazariy fanlar kafedrası, o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Topishmoq janri tabiat hodisalari, jonzotlar, buyumlar, insonlarga xos sifatlar va narsalarni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalar mazmun–mohiyatini ko'proq belgilash, yoritishga yordam beradi. Folklorning topishmoq janri kattalar va bolalar uchun birday fikrlashga, sezgilar orqali idrok etishni, borliqni tasavvur qilishga, eng muhim va umumiy xossalarini jamlashga undaydi.

Ushbu maqolamizda topishmoq janri poetikasi, unda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari, topishmoq turlari, turkumlari, ertakli topishmoqlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Topishmoq poetikasi, metafora, topishmoq turlari, ertakli topishmoqlar, antiteza, badiiy tasvir vositalari.

АННОТАЦИЯ

Жанр загадок помогает определить и уточнить сущность существования и существующих в нем вещей путем сравнения явлений природы, существ, предметов, человеческих качеств и вещей друг с другом. Жанр-загадка фольклора побуждает и взрослых, и детей думать, чувственно воспринимать, представлять себе существование, обобщать его важнейшие и общие свойства. В этой статье мы поговорим о поэтике жанра загадки, используемых в ней средствах художественного изображения, видах и категориях загадок, сказочных загадках.

Ключевые слова: Поэтика загадки, метафора, виды загадок, сказочные загадки, антитеза, средства художественного изображения.

Topishmoqlar asrlar davomida yaratilib, avloddan –avlodga o'tib, sayqallanib kelayotgan barcha xalqlar folklorining mustaqil kichik janrlaridan biri hisoblanadi. Ba'zi topishmoqlarning obykti, shakli, mazmuni ma'lum ma'noda uning qadimiyligini aniqlashga yordam beradi. Insonlar qadim zamonlardan boshlab bugungi kunimizga qadar asta-sekin tabiat va jamiyatdagi kishilar uchun foydali yoxud zararli bo'lgan voqea-hodisalar, jonli yoki jonsiz narsalar, shaxslar umuman har xil

obyektlarni o‘z zamoni va tushunchasi doirasida anglagan holda topishmoqlar yaratib kelganlar.

-J'ai quatre pattes et un dos, mais je ne peux pas marcher. Qui suis-je? Une chaise
-Menda to‘rt oyog‘im bor lekin yurolmayman. Men kimman? Stul

Topishmoq yuzaga kelish jarayonida insonlarga atrof-muhitdagi narsalarning umumiy, mushtarak va xususiy belgilarini ajratib taqqoslab, uning eng nozik jihatlarini yashirib, aytish uchun obyektiv borliqni his qilib, a‘zolari orqali bilib idrok etib, tasavvur hosil qilib, umumlashtarish tahlili asosida fikrlab, boshqalarga jumboq taqdim etish kuzatiladi.

- Je porte des lunettes, mais je ne vois pas. Qui suis-je? - Le nez

-Men ko‘zoynak taqsamda lekin o‘zimko‘rolmayman. Mem kimman? -Burun

Topishmoq javobini izlayotganlar jumboqdagi belgilarni solishtirish, taqqoslah, uni borliqdagi boshqa narsalar, hodisalar belgilari bilan qiyoslashga urinadi. Sezgilar hamda kuzatishlari orqali olgan ma‘lumotlarni ongida qayta tiklaydi, belgining biror jihatini yashirilgan obyektning harakati, shakl-shamoyili, rangiga ko‘ra qiyoslanishini aniqlaydi, natijada ixtiyorsiz idrok ixtiyoriy idrokka aylanadi.

- J'ai des dents, mais je ne mords pas. D'ailleurs je n'ai pas de bouche. Je n'ai pas de tête, pourtant j'ai souvent des cheveux. Qui suis-je? La peigne

-Tishlarim bor, lekin tishlamayman. Qolaversa, og‘zim ham yo‘q. Mening boshim yo‘q, lekin doim sochlarim bor. Men kimman? Taroq

Topishmoq matnning yorqin, rang-barang hamda hamohangligi alliteratsiya natijasida hosil qilingan ritm, so‘zlarning takror qo‘llanilishi, qarshi ma‘noli tushunchalar va antitezaning mavjudligi beixtiyor tinglovchi diqqatni jamlaydi va ixtiyorsiz idrok etilgan matnni ixtiyoriy idrok qilish asosida topishmoq javobi topiladi. Topishmoqning kattalardagina emas, balki bola psixologiyasini rivojlanishida ham muhim o‘rni mavjud. Topishmoqni topish, uni doimiy yechib borish natijasida bolada rivojlanadigan tizimli, davomli, rejali, tartibli idrok qilish qobiliyati, kuzatuvchanlik topishmoqni yechishdan avvalroq ham mavjud bo‘ladi. Lekin bu qobiliyat topishmoqlar yordamida bolada hayot tajribasi va ilmiy bilishning taraqqiy etishiga olib keladi.

- Je remplis une pièce sans prendre de place. On peut me voir mais pas m'attraper.

-La lumière

-Men joy egallamasdan xonani to‘ldiraman. Siz meni ko‘rishingiz mumkin, lekin tutolmaysiz. –Yorug‘lik

O‘zbek adabiyotida topishmoq muammo, chiston, jumboq, lug‘z deb nomlansa, fransuz adabiyotida **devinette** yoki **énigme** deb nomlanadi. Ya‘ni topishmoq aniq bir predmetning kelib chiqishi, vazifasi va hayot dialektikasida bilish orqali ifoda etiladi,

topishmoqlar soʻz obrazining kalitidir. Insoniyat hamisha oʻz avlodining ziyrak, yaxshi xotirali, tez fikrlovchi va zukko boʻlishini istagan.

Topishmoqlar ikki turkumga ajratiladi:

1. Bir predmetli topishmoqlar. Bu xildagi topishmoqlarda birgina narsa jumboqlanadi: jumboq ham bitta, javob ham bittadir.

2. Koʻp predmetli yoki murakkab topishmoqlar. Yuqorida koʻrilganidek, hamma birlashgan topishmoqlar ham bir predmetli boʻlarmaydi. Agar xalq dostonlari, ertaklarini oʻqisak, asar qahramonlari birlaridan turli jismoniy kuch talab qilinsa, ikkinchisi aql-idrok bilan muammoni hal etadi. Jumladan, shunday ertaklar borki ularda maʼshuqa qizlar oʻzlari turmushga chiqadigan yigitlar oldida shaxmat oʻynash, jumboqli savollarga javob berish kabi shartlarni qoʻyadilar.

-Qui marche à quatre pattes le matin, sur deux pattes le jour et sur trois pattes la nuit?

-Kim ertalab toʻrt oyoqlab, kunduzi ikki oyoqlab, kechqurun uch oyoqlab yuradi?

-Quand une personne est bébé, elle marche sur quatre jambes, quand elle est jeune, sur deux jambes, et quand elle est vieille, elle marche sur trois jambes.

-Odam goʻdakligida toʻrt oyoqlab, yoshligida ikki oyoqlab, qariganida uch oyoqlab yaʼni hasa bilan yuradi.

-C'est le fils de mon père, mais il n'est ni mon frère ni mon frère. Qui est-il?

-C'est moi

-Otamning oʻgʻli lekin mening ukam ham akam ham emas. Kim ekan u? – Bu men.

Aslini olganda bu sinovlarning hammasi oʻziga xos topishmoqlardan iboratdir.

Hatto mashhur oʻzbek olimasi Z.Husainovanning maʼlumot berishicha, oʻtgan zamonlarda uzun qish kechalarida urchuq yigirgan va olacha toʻqigan xotinlar oʻzaro chaldirmoq, tez aytish, jumboq yaʼni topishmoq aytishishgan. Topishmoq aytgan odamning topishmogʻining javobi topilsa, u musobaqada yutqazgan, topilmasa, gʻolib chiqqan hisoblangan. Har ikki holatda ham magʻlub boʻlgan taraf yo gʻazal aytgan, yoki biron hayvonga taqlid qilib ovoz chiqargan, yo qoʻshiq kuylagan, yoki biron jismoniy ish qilgan: suv olib kelgan, qor kuragan, hovli supurgan.

Bitta topishmoq matniga bir nechta javob boʻlishi mumkin. Masalan, Uzun terak ichi kovak topishmogʻining javobi aslida qamish hisoblanadi, ammo bu topishmoqqa baʼzan miltiq baʼzan moʻri soʻzi javob sifatida qabul qilinadi.

- La réponse à l'énigme "Le trou dans le long peuplier" est un rosea, mais parfois le mot "pistolet" ou "cheminée" est considéré comme la réponse à cette énigme.

Topishmoq aytish musobaqasida yashiringan narsani aniqlash uchun bir necha savollar berish anʼanasi ham boʻlgan. Xalq orasida yashab kelayotgan topishmoqlar bir jumboqli va koʻp jumboqli boʻlishi mumkin.

-Tu me vois dans l'eau, pourtant je ne suis jamais mouillé. Qui suis-je?
Ton reflet.

-Sen meni suvda ko'rasan, lekin men hech qachonho'l bo'lmayman. Men kimman?

Sening aksing.

Ko'p satri va ko'p predmetli topishmoqlar orasida shundaylari borki, ular predmetning xususiyatlarini xarakterlash hisobiga emas, balki jumboqlangan narsalarning har birini topish hisobiga katta hajmga ega boladi. Bu turdagi topishmoqlar asosan bir predmetli topishmoqlarning xususiyatlarini o'ziga jamlab olish natijasida yuzaga kelgan.

Topishmoq haqida ilmiy tadqiqot olib borgan olim Z.Husainova ba'zi topishmoqlarda istiora san'ati qo'llanmasligi, faqat arifmetik hisoblash orqali javob topilishini aytib o'tadi.

Topishmoqlarning bugungi kunda bizgacha yetib kelgan matnlarini yaratilgan davri jihatidan ikki xil namunalari bor. Ko'pchilik asarlar an'anaviy topishmoqlardan iborat. Ularning tili ham, yashiringan narsa ham aksari maishiy hayotda uchraydigan voqea-hodisalardan iborat bo'ladi.

“Pas un lac, pas une rivière,

“Ko'l emas, daryo emas,

L'eau gèle à l'intérieur.

Ichida muzlaydi suv.

Même pendant l'été chaud

Jazirama yozda ham,

Il ne conduit pas la chaleur.

Issiq o'tkazmaydi u.

Il est tout en fer,

Usti boshi temirdan,

Sa place est au dessus(réfrigérateur)

Shundan joyi tordan” (muzlatgich)

Yana shunday bir topishmoq turi borki, unda ma'lumot predmetlar nazarda tutilgan holda boshqa narsalarga o'xshatilmaydi, taqqoslanmaydi va belgilari ham aytilmaydi, jumboqli nechta predmet nazarda tutilsa, o'sha son bir jumboq hisoblanadi. Savol qismi sanoq bilan aytladi, ya'ni aytiladigan predmetlar hammasi bir topishmoq ma'nosida keladi. Bunday sanoq sonli topishmoq boshqa xalqlarda ham uchraydi. Ammo bunga o'xshash predmetlar ularda topishmoq bo'lmay balki o'yin tarkibiga kiradi. O'zbek xalqida savolga javob berish yo'li bilan aytilganligi sababli ham ular topishmoq sanaladi.

Le garçon a 10 ans et sa petite sœur a 5 ans de moins que lui. Quel âge aura sa petite soeur quand le frère sera 10 fois plus âgé ? 95 ans.

Bola 10 yoshda, singlisi esa undan 5 yosh kichik. Akasi 10 marta katta bo'lsa, singil necha yoshda bo'ladi?

95 yoshda.

Topishmoq doston va ertaklar ichida ko'p uchraydi. Bu narsa ayniqsa ertaklarga xos xarakterdir. Bu janrlar tarkibidagi topishmoq orqali ertak qahramonlaridagi aql-zakovat, farosat, donolik, topqirlik, hozirjavoblik sinaladi. Topishmoq aralashgan ertaklar ikki xil tuzilishga ega: biri topishmoqli ertaklar. Bunda topishmoq ertak ichida keladi. Ikkinchisi topishmoq, bunday ertak butun syujeti bilan topishmoq asosida quriladi. Shuning uchun ham ertak topishmoqlar odatda qisqa shaklda aytiladi. Ertak topishmoqlar boshidan oxirigacha ertak janriga xos mazmun va shaklni saqlagan holda hamma vaqt biror topishmoq asosida qurilgan bo'ladi. Shu sababli ertakdan topishmoqni olib tashlab bo'lmaydi. Topishmoq olib tashlansa, ertakning o'zi ham bo'lmaydi. Shunday qilib, topishmoqlar xalq og'zaki ijodining kichik janrlaridan biri bo'lib, mohiyati, badiiy tasvir vositalari jihatidan millat vakillarining ziyrak, sinchkov, topqir, kuzatuvchan bo'lishlari uchun xizmat qiladi. Topishmoqlar xalq hayotida ma'lum e'tiborga ega bo'lgan narsa-predmetlar nomini topishga bag'ishlanadi. Va ahamiyatli hisoblanadi.

Topishmoqlar badiiy tasvir vositalarining shakllanishi jihatidan boy va rang-barang hisoblanadi. Avvalo aytish kerakki, shakl jihatidan topishmoq maqollar kabi ixchamdir. Ayrim olimlarning ta'kidlashicha topishmoq va maqollarning yaratilishi davr jihatidan bir-biri bilan u qadar farq qilmaydi. Shuning uchun ham asrlar davomida matni qayta-qayta ishlanganda topishmoqlarning badiiyati mukammal darajaga yetgan. Topishmoq janrining asosiy tasvir vositasi metafora, ya'ni istiora ekani aytiladi.

-Un éléphant va à la mare. Sur le chemin, il crois un singe, une guenon et leurs 7 petits, un zèbre, un buffle avec un pique-boeuf, une girafe et son girafon. Combien d'animaux seront à la mare?

-Un seul, car les autres animaux ne vont pas à la mare puisqu'ils se croisent

-Fil hovuzga boradi. Yo'lda u maymun oilasi va ularning 7 nafar kichkintoyiga, zebra, shoxli ho'kiz, jirafa va uning bolasiga duch keladi. Hovuzda nechta hayvon bo'ladi?

-1ta, chunki fil boshqa hayvonlar yo'llarini kesib o'tganlar, va ular hovuzga bormaydilar

Demak askiya janrini ilhom san'atisiz, topishmoqlarni istiorasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu janrda xalq og'zaki ijodidagi boshqa turlarda uchramaydigan tasvir vositalari bor. Hatto mazkur san'atning aniq nomi ham folklorshunoslikda qayd etilgan. Faqat ayrim belgilari bilan uni talmeh san'atiga yaqin deyish mumkin,

ma'lumki, talmeh-qaratmoq ma'nosini anglatadi. Unda xalq tarixidagi mashhur ismlar, joylar nomlari, yoki voqealar eslab o'tiladi.

Topishmoqlarda ham turli munosabatlar bilan birga turli ismlar uchraydi. Ularning tarixan mashhurligi qayd etilmagan, ammo matnlarda bu ismlar, albatta qandaydir ma'no kasb etadi va shartli ravishda talmeh sa'atiga yaqin turadi.

Taxmin qilib aytish mumkinki shunday namunalar qayd etilgan hududlarda ismlar topishmoq aytuvchilar o'rtasida mashhur bo'lgan bo'lishi mumkin.

Ma'lumki badiiy tasvir vositalari qatorida istiora san'ati ham muhim o'rin egallaydi. Istiora so'zi ko'chim ma'nosini anglatadi. Topishmoqlarda ushbu san'at yetakchilik qiladi. Chunki biron narsa ikkinchi bir narsaga istiora san'ati vositasida o'xshatiladi va eng muhim xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

“Sa chemise,
“Ustidagi ko'ylagi,
C'est comme le papier.
Xuddi qog'ozga o'xshar.
Si tu le coupe, étant en colère,
To'g'rasang, jahli chiqib,
Il te pleurera immédiatement” (Oignon).
Ko'zingni darrov yoshlar” (Piyoz)

Topishmoqlar janri dinamik harakat, fonetik ohangdorlik, oziga xos ritm sintaktik stilistik figuralar yordamida shakllanadi. Antiteza, ellipsis, sanash usullari, gradatsiya topishmoq matnining emotsionalligini oshiradi. Komponentlarining o'zaro munosabatiga ko'ra topishmoqlar bir necha turga bo'linadi: Antiteza topishmoqlar – ular qarama-qarshi ma'noli so'zlar yordamida hosil bo'ladi: Tirik kelib o'likdan osh so'radi, o'lik turib tirikni bo'g'ib oldi. Bu topishmoqda o'lik bu qopqon, tirik bu sichqon.

Antiteza (yoki qarama-qarshilik) – ma'no jihatidan keskin farq qiluvchi yoki qarama-qarshi bo'lgan so'z yoki iboralarni taqqoslashdir. Antiteza o'quvchida ayniqsa kuchli taassurot qoldirishga, she'r matnida qo'llanilgan qarama-qarshi ma'no tushunchalarining tez o'zgarishi tufayli muallifning kuchli hayajonini unga yetkazish imkonini beradi. Shuningdek, muallif yoki uning qahramonining qarama-qarshi his-tuyg'ulari va kechinmalari teskari obykti sifatida ishlatilishi mumkin.

-Au début de ma vie, je suis grande, puis je rétrécis avant de m'êteindre.

Qui suis-je?

-Une bougie

-Hayotimning boshida men kattaman, keyin o'lishdan oldin kichrayib qolaman.

Men kimman? Sham

Takror orqali tuzilgan topishmoqlar - murakkab tarkibli topishmoqlarda gradatsiya usulidan foydalanib, bir-biriga bog‘liq narsa-hodisalarning yashiringan holati izma-iz bayon qilinadi.

Demak, xalq topishmoqlari badiiy jihatidan ham yuksak so‘z san‘ati namunasi hisoblanadi. Topishmoqlarning badiiyati pishiq-puxtaligi, unda turli badiiy tasvir, vosita va usullarning qo‘llanilishi topishmoq matnining ta‘sirchanligini oshiradi, tinglovchilarning va ayniqsa bolalarning fikrlash malakasini o‘stirib, ularning ziyrak, topqir, hozirjavob bo‘lishiga yordam beradi. Bu janr ko‘pincha bolalarni kuzatuvchanlikka, hayotni mikammalroq bilishga, sinchkovlikka va topqirlikka o‘rgatib, og‘zaki nutqni rivojlantiradi. Ammo topishmoqlar folklorda faqat yosh bolalargagina taalluqli deb hisoblashtog‘ri emas, chunki topishmoq aytish va toppish musobaqalarida kattalar ham qiziqish bilan ishtirok etishadi.

Topishmoq bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki kundankunga yangi-yangi topishmoqlar yaratilib, ommalashib, shu bilan birga zamonaviylashib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdurahimov M. O‘zbek xalq topishmoqlari. T., 2008. b.71.
2. Beisner Monika , Charpentreau Jacques , 1999. Les cent plus belles devinettes. Gallimard
3. Husainova Z. So‘ngso‘z // Topishmoqlar. Ko‘p tomlik. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1981. – B.337 – 338.
4. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., «O‘qituvchi». 1990. 121 –bet
5. Jolles, 1930 . Les cent plus belles devinettes .Gallimard st.129
6. Nabijon Ermatov. “99 topishmoq va tez aytishlar”. – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, Toshkent- 2013
7. Qobuljonova G. Metaforalarning sistemaviy-lisoniy talqini (O‘zbek xalq topishmoqlari misolida). Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref, 2006;
8. <https://frenchblogs.ru/relearning/tongue-twisters.html>